

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова**

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash ..... 111

**D.T.Abduraimov**

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

**F.M.Mamadova**

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi ..... 121

**M.M.Yuldashev**

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati ..... 125

**N.J.Madaminova**

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili ..... 129

**S.M.Sidikov**

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

**S.B.Erkinova**

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari .... 139

---

**IQTISODIYOT****M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

---

**FALSAFA****I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

**F.A.Yuldashev**

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

**Sh.Ismatov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari ..... 158

**B.B.Asqarov**

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli ..... 161

**I.A.Asatulloev**

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

**O.Ortiqov**

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

**A.M.Nurmuxammadjonov**

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari ..... 175

**A.A.Sayitxonov**

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

---

**SIYOSAT****A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari ..... 191

**S.N.Abdullayev**

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari ..... 196

---

**ТАРИХ****Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



**IJTIMOIY RIVOJLANISH JARAYONIDA YOSHLAR MUSIQIY TAFAKKURINI  
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI**

**НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ НА  
НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА**

**THE NEED TO RAISE THE MUSICAL THINKING OF THE YOUTH AT THE NEW STAGE  
OF SOCIETY'S DEVELOPMENT**

Nurmuxammadjonov Axmadjon Maxmudovich

Farg'ona davlat universiteti vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasи, dotsent

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirish kerakligi haqida keng yoritib o'tilgan. O'zbek musiqa san'atimizni yoshlар ongiga chuqurroq singdirish, maqom san'atining naqadar go'zalligini, anglatish, uning mojizakorligi va bu qadimiy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rliklar ushbu maqolada yorqin ifodasini topgan.*

**Аннотация**

*В этой статье широко освещается необходимость развития музыкального мышления молодежи на новом этапе развития общества. Подчеркивается важность глубокоого внедрения узбекского музыкального искусства в сознание молодежи, раскрытие красоты макамного искусства, его чудодейственной природы и необходимости беречь это древнее наследие как ценнейшее сокровище. Благородные усилия, направленные на сохранение и передачу этого наследия молодежи, находят яркое выражение в огромном внимании и заботе, уделяемых развитию национального макамного искусства, что подробно отражено в данной статье.*

**Abstract**

*This article extensively discusses the need to develop the musical thinking of young people in the new stage of societal progress. It emphasizes the importance of deeply embedding Uzbek music art into the consciousness of the youth, highlighting the beauty of maqom art, its miraculous nature, and the need to protect this ancient heritage as a precious treasure. The noble efforts aimed at preserving and imparting this heritage to the youth are reflected in the immense attention and care shown towards the development of national maqom art, which is vividly expressed in this article.*

**Kalit so'zlar:** maqom, musiqa merosi, musiqiy tafakkur, an'anaviy san'at, shashmaqom

**Ключевые слова:** стамус, музыкальное наследие, музыкальное мышление, традиционное искусство, шашмаком.

**Key words:** status, musical heritage, musical thinking, traditional art, shashmaqom

**KIRISH**

Musiqa san'atida cholg'ularning o'ziga xos o'rni bo'lib, talaba-yoshlar ma'naviy-dunyoqarashlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa asarlari shunday ulkan tarbiyaviy kuchga egaki, uning tarbiya vositasi sifatidagi ulkan ta'sirchan kuchi bugungi kunda mamlakatimizda kamol topayotgan yoshlarning badiy-estetik tafakkuriga ta'siri masalasi dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Musiqiy ohanglar zamirida yashirinib yotgan obrazlar tinglovchining hayolida, ichki ruhiy kechinmalari va tasavvurida qayta jonlanib, ma'naviy-axloqiy va estetik kamolotga erishishida katta yordam beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Talaba-yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish ucun tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlarni yaratish, ularning har jihatdan kamol topishlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi "O'zbekiston yoshlari – 2025 konsepsiysi"<sup>20</sup>ni ishlab chiqarish zaruriyatlarini vujudga keltirdi.

Mustaqillik yillarda respublikada milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Ta'lim tizimining asosiy maqsadi bo'lgan jismonan sog'lom, ma'nан

yetuk, mustaqil fikirlaydigan barkamol yosh avlodni tarbiyalash uchun mamlakatimizda keng ko'lami shishlar olib borilmoqda.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Musiqa eng qadimgi davrdan boshlab inson hayotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Musiqa san'atiziz insoniyat hayotini mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Musiqa xalq hayotini eng yaxshi va go'zal tomonlarini aks ettiruvchi vositadir. Darhaqiqat, inson hayotini musiqasiz tasavvur qilish juda ham qiyin. hayotimizdagи yutuqlar, xursandchiliklar, tantana va shodiyonalar, muhim sanalar oilada, mahallada, shaharda, umummiliy davlat miqyosida nishonlanadi. Hozirgi bayram va tomoshalarni ayniqsa, musiqasiz tasavvur qilish qiyin. Musiqa bayramning tantanavor ruhiyatini vujudga kelishiga yordam berib, uning emotsiyonal ta'sirini oshiradi; alohida epizodlarning badiiy obrazini ochib berishga yordam beradi. Musiqa ommaviy bayram va tomoshada harakat ishtirokchisi funksiyasini bajarib, diologda qatnashishi mumkin. Respublikamizda o'tkazilayotgan "Mustaqillik", "Navro'z", "O'zbekiston – Vatanim manim" kabi bayram qo'shiqlari, "Biz seni hech kimga bermaymiz, O'zbekiston" vatandarlik festivallarida Vatanimizni, mustaqilligimizni madh etuvchi bir qancha asarlar yaratildi. Ayniqsa, prolog va finalda ijro etiladigan, maxsus qo'shiqlar-jumladan, Oxunjon Hakimov qalamiga mansub Yulduz Usmonova ijrosida kuylanib kelinayotgan dunyo nomli ajoyib qo'shiqlar, yoshlarning madhiyasi darajasiga olib chiqdi<sup>21</sup>.

Hozirda mamlakatimizda barcha jabhalarda kechayotgan islohatlar davrida mumtoz musiqa, ayniqsa, maqom san'atiga e'tibor kuchaydi. "Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatlari mehnati va fidoiyligi, ijodi tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan"<sup>22</sup>.

Musiqa estetik tarbiya va madaniy hayotimizda tobora keng o'r'in egallamoqda. Shunga ko'ra musiqa madaniyatini rivojlantirishga, jamiyatimizni ma'naviy yangilanish jarayonida, xususan, yoshlarni estetik tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilib, musiqa namoyondalari zimmasiga yuksak badiiy asarlar yaratish vazifalari yuklanmoqda va ular muvaffaqiyatlari hal qilinmoqda. Zero, xalq musiqa san'atining tarixini o'rganmay turib musiqa madaniyati rivojlanishining qonuniyatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek xalqi boshqa xalqlar kabi o'zining boy milliy musiqa madaniyatiga ega. Bu madaniyat tobora rivojlanmoqda va boyimoqda. Uning o'ziga xosligi ortmoqda. O'zbek musiqa san'atining taraqqiyoti barcha xalqlar san'ati uchun ham xarakterlidir. Musiqa madaniyatlarni bir-birini boyitishi va o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan ma'naviy ko'priq vazifasini bajaradi.

Ma'naviy boyliklarni keng miqyosda almashish milliy munosabatlar rivojlanishining qonuniyatlaridir. Hech bir xalq ana shu jarayondan chetda turmagan. Adabiyot va san'at dekadalari, milliy teatrlar va konsert brigadalarining gastrollari, rasm ko'rgazmalari, kitoblarni o'zaro tarjimalar qilish va badiiy faoliyatning boshqa juda ko'p shakllari ma'naviy hayot sohasidagi milliy munosabatlarni aks ettirgan. O'zbek xalqi musiqa madaniyatining boyish jarayoni ko'p qirrali va murakkabdir. Masalan, o'zbek opera va balet san'atining shakllanishi O'zbekiston musiqa madaniyatining yuksak darajaga yetganini ifodalaydi. Xalq havaskorlik to'garaklarining shakllanishi va ularda qo'shiq va raqslar bilan ijro etiladigan musiqali drama asarlarining qo'yilishi musiqa madaniyatining rivojlanishi uchun xizmat qildi. O'zbek opera san'atining yaratilishi o'zbek xalqi milliy musiqa madaniyati rivojlanganligidan dalolatdir.

O'zbek opera va balet asarlari o'zbek xalqining o'tmishdagi milliy badiiy madaniyati hamda o'ziga xos musiqa san'atining boy an'analaridan foydalanish asosida yaratildi. Opera va balet asarlari, ularning kuy-ohanglari mohiyati milliy va o'ziga xosdir. O'zbek musiqa madaniyatining boyish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, o'ziga xos sharoitda rivoj topdi. Natijada o'zbek xalqining musiqa san'atida yangi janrlar: simfoniya, simfonik poema, oratoriya, kantata, romans, cholq'u asboblari konserti, orkestr, estrada qo'shiqlari, syuita va hokazolar vujudga keldi. Mazkur yangi janrlardagi juda ko'p asarlar O'zbekiston bastakorlari tomonidan yozildi. Masalan, Mushelning "Farhod qurilishi", M.Levievning "Yorqin yo'", "Oq oltin", I.Hamroevning "O'zbekiston" kantatalari va boshqalar shular jumlasidandir.

Hozirgi o'zbek musiqa madaniyatining shakli ham, mazmuni ham boy va ko'p qirralidir. O'zbek bastakorlarining asarlari o'zida milliy, klassik, xalq og'zaki ijodi, va zamonaviy ko'p ovozli san'atni mujassamlashtirgan. Ko'p ovozlilikni joriy etish o'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishi uchun muhim turtki bo'ldi. Ko'p ovozlilik xalq cholq'u asboblarining o'zgartirilishini taqozo etdi va bu ish

<sup>21</sup> F. Ahmedov Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Toshkent."Aloqachi" nashriyoti, 2008 y.106 b.

<sup>22</sup> Ўзбекистон Миллый ахборот агентлиги, 2017 йил, 17 ноябрь.

## FALSAFA

O'zbekistonda muvafaqqiyatli amalga oshirildi. Ma'lumki, dunyodagi hamma narsa o'zgaradi, rivoj topadi. Shu bois "san'atning milliy o'ziga xosligi" tushunchasining mazmuni ham rivojladi. Chunki bu tushuncha faqat millatning xususiyatlarini hamda o'ziga xosligini emas, balki jamiyat rivojining u yoki bu bosqichida unga xos bo'lgan musiqiy tafakkurning uslubini va estetik ideallarini ham ifodalaydi. Shuning uchun musiqaga tarjimani yoki tarjimonni keragi yo'qligi doimiy ravishda ta'kidlanadi. Musiqa madaniyatlararo hamkorlikni ta'minlovchi vosita vazifasini o'tovchi omildir. Xalqaro madaniy aloqalar tarix xarakteriga ega bo'lib ular uzoq o'tmishdan boshlangan. N.I.Konradning yozishicha, insoniyatning turli qismlari o'zaro har qanday nifoqlashuvlariga qaramay, madaniyat sohasida doimo bir-birlari bilan aloqada bo'lgan va busiz yashay olmagan<sup>23</sup>.

Alovida madaniyatlar bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas. Bir-birini boyitish va o'zaro ta'sir ko'rsatish xalqlar madaniyatining rivojlanishidagi obyektiv tarixiy jarayondir. Bu jarayon xususan bizning jamiyatda eng yaqqol ko'rindi. O'zbek musiqa madaniyati faqat o'zbeklarga emas, balki boshqa xalqlarga ham xizmat qiladi. Shuningdek, uning o'zi ifodalashning yangi, yanada murakkab va mukammal badiiy vositalarini egallab, faqat mazmunan emas, balki shaklan ham boyidi va rivojlandi.<sup>24</sup>

Misol uchun, milliy musiqamizda ko'p ovozlilikni shakllanishi xor, orkestr, opera, simfoniya, balet, oratoriya, kantata va boshqa musiqa janrlarni vujudga kelishida muhim rol o'ynadi. Chunonchi, musiqaning yuqorida nomlari zikr etilgan shakllari o'zbek musiqa madaniyatiga tarkibiy ravishda qo'shilib, milliy xarakter kasb etdi va milliy musiqiy madaniyatimiz boyidi. Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi hisoblangan musiqiy madaniyat, bir tomonidan, insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib, ularning ijodiy salohiyati hamda axloqiy-estetik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomonidan, islohotlar jarayonida uning o'zi ham yangilanib, rivoj topmoqda. O'zbekistonning ma'naviy yangilanish jarayonida musiqiy madaniyatning yangilanib borishi jamiyat taraqqiyotidagi islohotlarga uyg'un holda amalga oshmoqda.

Muayyan falsafiy – estetik dunyoqarash asosida qadimgi san'atni badiiy madaniyat rivojlanishining dastlabki bosqichi sifatida tavsiflash an'anasi tarixan yuzaga kelgan va rivoj topgan. Antik davrda, masalan, pifagorchilar garmoniya to'g'risidagi falsafiy qarashlaridan kelib chiqib, matematika, musiqa va garmoniya estetikasi<sup>25</sup>ning dastlabki nazariyalarini ishlab chiqqanlar, yoki "So'z"ning badiiy kuchini asoslاب bergan sofistlar uni "ritorika, poeziya va badiiy prozadan iborat"<sup>26</sup> san'atning tarkibiy qismi sifatida tavsiflaganlar. Jamiyatning ma'naviy yangilanish jarayonida, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy-estetik ehtiyojlarini qondirishda yangi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-estetik omillar yuzaga chiqmoqda. Ijodiy faoliyat sohalari moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashga, zamonaviy talablarga xos jihozlashda alovida ahamiyat kasb etmoqda. Zero, mustaqillik sharoitida insonning o'z qobiliyati, iqtidori, iste'dodi va umuman erkin badiiy ijodiy faoliyatini rivoj toptirish uchun obyektiv va subyektiv sharoitlar yuzaga kelmoqda<sup>27</sup>.

Har qanday insonda voqelikka tabiatan estetik munosabat bo'ladi. Inson narsa va hodisalarni sezgi organlari orqali idrok etadi. Ulardan beixtiyor estetik ta'sirlanadi va ularni muayyan tarzda baholaydi. Chunonchi, ana shu ta'sirlanish va baholashning qandayligi inson estetik jihatdan qanchalik tarbiyalanganligiga bog'liq bo'ladi. Demak, yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishda estetik tarbiyaga alovida e'tibor berish zarur.

Estetik idrok hissiyotlarga, sezgilarga asoslanadi. Xususan sezgi organlari estetikkinkni o'ziga xos o'rinda qabul qiladi. Borliqdagi idrok etilayotgan narsa va hodisalarni sezgi organlari qayta ishlaydi va insonda taassurot hosil qiladi. Ammo idrok etilayotgan narsa va hodisalarni estetik baholash aql, ong, inson tarbiya olgan estetik va ma'naviy muhitlar orqali amalga oshiradi.

San'at ayniqsa, (Boshqa san'at turlarini ajratmagan holda) musiqa san'ati ijtimoiy munosabatlarning ifodasi-insonni uning rang-barang jismoni va aqliy qobiliyatlarini bilan birlgilikda tasvirlash orqali g'oyaviy-estetik tarbiyaning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishning zarurati san'atning insonda dunyoga g'oyaviy-hissiy estetik munosabatini tarbiyalashdir. Bizning fikrimizcha, estetikaning predmeti va obyekti faqat san'at va uning inson ruhiyatiga ta'siri emas, balki shu bilan birga butun voqeliklar, ijtimoiy munosabatlar, hayot, mehnat jarayoni, insonning eng murakkab ruhiy sohasi hamdir. San'atga hayot bilan uzviy holda qarash kerak.

<sup>23</sup> Конрад Н. И. Запад и Восток, М, 1966, 462-бет.

<sup>24</sup> Алижон Хасанов. Музыка ва тарбия. Тошкент."Ўқитувчи" 1993. 64-бет.

<sup>25</sup> Идея эстетического воспитания. Антология в двух томах, Т.1..-М...: Искусство, 1973, С.125.(-407)

<sup>26</sup> Лосев А.Ф. История античной эстетики. Софисты, Сократ, Платон,-М...: Искусство, 1969, С.31.(-715c.)

<sup>27</sup> Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-т.-Т.: Ўзбекистон. 1996. -Б.16-17.

Estetik tarbiyaning juda ko'p vositalari orasida san'at alohida o'r'in tutadi. San'at bilan bog'lanish insonlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitadi va odamlarda go'zallik hissiyoti bo'yicha yashashga yanada intilish kuchayadi. Estetik qarashlar haqida so'z ketganda cholg'u va ashula san'atining alohida o'rni bor va u san'atning o'ziga xos turidir. Yana shuni aytish lozimki, yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalaridan biri yoshlarning ahloqiy va estetik qarashlarida xalq musiqasidan foydalanishning shakllaridan biri sifatida qabul qilinishidir. Binobarin xalq musiqasi vositalari orqali yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish har qaysi xalqning musiqa madaniyatiga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Xalq musiqasidan asosan turli shakldagi badiiy havaskorlik to'garaklari orqali yoshlarning musiqiy tafakkurilarini rivojlantirishda foydalanish mumkin. Jumladan: Orkestr ijrosi orqali taralgan musiqa to'laqonli jozibali va har tomonlama mukammal bo'lib, talabalarning musiqiy tafakkurini yanada rivojlanishiga yordam beradi. Ijro qilinayotgan tovushlarni idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yakka cholg'ulardan eshitilgan yoki ansambil ijrosidagi musiqalarga nisbatan orkestr orqali eshitilgan musiqa o'rtasida katta farq bor. Chunki orkestrning o'z ichki imkoniyatlari, ya'ni diapozonining kengligi, turli tembrlari uyg'unlashgan cholg'ularning musiqa xarakterini va mazmunini bastakor istaganidek qilib ifodalab berishi yuqorida fikrimiz dalilidir. Orkestr qatnashchisi esa ko'povozlik va ansambl bo'lib bir-birini eshitib chalishga, ya'ni hamkorlikka o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda orkestr jamoatchilikka hamjihatlikka o'rgatadi.

Yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalarini belgilashda xalq musiqasi orqali ma'naviy va estetik tarbiyalashning muhim ijtimoiy munosabatlaridan biri ma'naviy va ijodiy yondashishdir. Fikrimizcha, ma'naviy va ijodiy yondashuv yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda ta'sirli bo'ladi. Qo'shiqni g'oyaviy mazmunini, she'riy asar sifatidagi badiiy xususiyatlarini, ritm-kuy va kompozitsion belgilarini tahlil qilish; ashula asarining tarixiy asosi to'g'risidagi, asar yaratilgan davr hamda o'sha davr sharoitining qo'shiq g'oyaviy mazmuniga ta'siri haqidagi suhbatlar, xalq musiqasi madaniyati mavzuida munozaralar, konferensiylar o'tkazish kabi usullar yetarli darajada samaradorlikka ega bo'lishi mumkin. Yoshlarni musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalarini belgilashda vokal-musiqa xalq san'ati vositalari orqali axloqiy va estetik munosabatlarini shakllantirishda mazkur san'at turining murakkab, o'ziga xos xususiyatini nazarda tutish zarur. Kuy, musiqa, qo'shiq matni, uning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlar, ijrochilarining mahoratlari birgalikda har qanday vokal musiqiy asarning, shuningdek, xalq musiqasining ham yo'nalishning umumiyligini ifodalaydi. Ana shu umumiylilik asarning insonga ma'naviy ozuqa olishini ta'minlaydi. Qo'shiq, musiqa asari insonga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turli kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarining ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga undaydi.

Tinglovchi qo'shiqni yolg'iz hissiyoti bilan emas, shuningdek, ongi bilan ham idrok etadi. Chunki qo'shiqning matni, unda ifodalangan g'oyaviy mazmun qo'shiqda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan ma'lum bir munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir. Inson yaxshi qo'shiqni mahoratlari ijrochi ijro etganda va uni tinglaganda kechinmalar vujudga kelishi tasodify va bejiz emas. Tinglovchilarining qo'shiqni qanday idrok etishlari, undan qanchalik ta'sirlanishlari, shuningdek, asarning tinglovchilar hissiyotiga va ongiga ta'siri musiqa qanday yangrashiga, ashulachi qo'shiqni qanday ijro etishiga bog'liq bo'ladi.

San'at badiiy madaniyatning ildizini tashkil etadi, asrlar osha insonni ma'naviy – hissiy o'ziga tortadigan, juda nozik, to'satdan paydo bo'ladigan hodisaga o'xshash muhim axloqiy-estetik omil vazifasini bajarib kelmoqda. E.Umarov ta'kidlashicha, "san'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsadir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'langandir" <sup>28</sup>. Hayotda va ijtimoiy munosabatlar jarayonida tasdiqlangan mana shu qoidalardan quydagicha xulosalar chiqarish mumkin: xalq ashula-musiqa asarlarining tinglovchilarga yuqori darajada ma'naviy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash uchun to'garak yoki ansambl rahbari musiqachilar va qo'shiqchilarining yuksak sifatli ijrochiligidagi erishmog'i kerak. Bunga esa faqat muntazam va uzoq mashqlar orqali emas, balki shu bilan birga yaxshi, ilhom va to'lqinlanib ijro etish zarurligi haqida maxsus ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar o'tkazish orqali erishiladi. Yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda istiqboldagi vazifalarni hamda yoshlarni axloqiy va estetik

<sup>28</sup> Умаров Э. Эстетика. –т...: Ўзбекистон. 1995. Б-135

## FALSAFA

tarbiyalashning zaruriyatini yana shu bilan izohlash mumkinki, xalq tarixni harakatlantiruvchi kuchidir, san'atning barcha turlarini, shu jumladan, musiqa san'atini ham ta'minlaydigan hayotdagi donolikning, axloqiy poklikning jonli manbaidir. Chunonchi, madaniyat tarixida har qanday san'at turiga oid yaxshi asarlar, shu jumladan, musiqa asarlari xalq ijodiyoti asosida yaratilgani bejiz emas. Avlodlarning vorisligi madaniyat, ma'naviylik, fan va san'at rivojlanishining eng muhim subyektiv omillaridan biridir.

Yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda ashulachilik san'ati eng kuchli vositalardan biridir. Ana shu san'atning umumiy ko'rinishida namoyon bo'ladijan o'ziga xos xususiyati (kuy, musiqa, ashulaning matni, ijrochilik mahorati) uning insonga ta'sir qilishini ta'minlaydi. Ashulaning ijrosi har tomonlama ta'sir ko'rsatadi: kuy va uning musiqiy ifodasi insonning hissiyotiga, matn uning sezgilari va ongiga ta'sir etadi. Shu bois, madaniyat tarixida har qanday san'at turiga oid yaxshi asarlar, shu jumladan, musiqa asarlari xalq ijodiyoti asosida yaratilgani bejiz emas. Avlodlarning vorisligi madaniyat, ma'naviylik, fan va san'at rivojlanishining eng muhim subyektiv omillaridan biridir. O'tmishdagi xalqlar musiqa madaniyatini har tomonlama chuqur o'rganish, yangi insonni kamol toptirishda ahamiyati kattadir. Hozirgi davrda maqomlarning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tiborni qaratsak, maqomlar uzoq o'tmishdagi musiqa madaniyatining bir elementi ekanligiga qaramay, ular o'zining estetik tarbiyaviy ahamiyatini saqlab va rivojlantirib kelgan. Maqomlar musiqa madaniyatining o'lmas boyliklariga kiradi. Xuddi shuning uchun ham ular qadim zamonlarda shakllanib kelgan bo'lsa-da, hozirga qadar o'zining dastlabki tarovatini yo'qotmagan. Lekin maqomlarni mutlaqo turg'un, bir hil shaklga ega, deyish noto'g'ri bo'ladi. Ular avloddan-avlodga o'tishi bilan taraqqiy etdi va boyib bordi. O'zbeklar musiqasi o'tmishda og'zaki an'ana yo'sinida bo'lganini, ya'ni og'izdan-og'izga ko'chganini, avloddan-avlodga davom etganini va notaga yozilmaganini hisobga olinsa, uni hech qanday o'zgarishsiz qolgan deyish noto'g'ri bo'lar edi. Maqomlar ham an'anaviy og'zaki professional musiqaning bir qismi sifatida albatta o'zgargan va takomillashgan. Bizgacha yetib kelgan maqomlar murakkab turkumli yirik asarlar bo'lib, ular an'anaviy yo'sindagi musiqa-cholg'u asarlari juda katta tarbiyaviy qimmatga egadir. Chunki ular hozirgi zamon kishisini o'tmishdagi musiqa madaniyatining xazinasi bilan tanishtiradi, avlodlarning o'zaro bog'lanishini amalga oshiradi, zamonlarni bog'lovchi vosita hisoblanadi.

Ana shu ma'naviy bog'lanish yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Uning ta'sirida inson o'zidan oldin o'tgan avlodlarining madaniy yutuqlaridan faxrlanadi, xalq madaniyatini hurmatlaydi va e'zozlaydi. Bu esa unda vatanparvarlik, milliy iftixon hislarini boyitadi. Maqomlardagi musiqiy ohanglarning ta'siri faqat ahloqiy ong sohasiga emas, balki estetik idrokka ham tarqalib, insonga yuksak darajada zavq bag'ishlaydi va unda musiqadagi chin go'zallik to'g'risida tushuncha hosil qiladi. Maqomlardagi musiqiy-cholg'u, lad-kuy qismlarning asosiysi yoshlardagi musiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi tarbiyaviy vazifalari ana shundadir.

Zamonaviy yoshlarni maqomlar bilan tanishtirishdan oldin o'qituvchi yoki ijrochi tinglovchilar tushunadigan holda maqomlarning rivojlanish tarixi, musiqiy tuzilishi va ohang xususiyatlari haqida tushuntirishi lozim. Yoshlar bilan o'tkaziladigan suhbatlar ularga maqomlarning musiqiy intonnatsion tuzilishini idrok etishda yordam berishi, tinglovchilarni maqomlardagi tovushlar dunyosiga olib kirishi kerak. Maqomlardagi ashula qismining tarbiyaviy imkoniyati juda kattadir. Ana shu imkoniyatlarni ikkiga bo'lish mumkin: ashulani va uni ijro etishning bevosita ta'siri hamda maxsus suhbatlar orqali amalga oshadigan bavosita ta'siri. Maqomlardagi ashula qismining mazmuni, maqomning musiqiy-cholg'u asarlariga, intonnatsiya-ohang tizimiga ashula jo'rligi uchun mashhur shoirlar va xalq baxshilarining she'rlari tanlangan. Bu she'rlar esa she'r yozishning musiqaga mos o'lchamiga ega bo'lgan. Ana shu moslik sababli maqomning musiqiy va ashula qismlari ijro jarayonida uyg'unlashib, tarkibiy badiiy yaxlit holga keladi. Mana shu badiiy yaxlitlik tinglovchiga estetik ta'sirning kuchli omili hisoblanadi. Maqomlardagi ashula bo'llimining klassik namunalari yuksak muhabbatni, ezgu histuyg'ularni, oshiqning intilishini, ayolning go'zalligini, tabiatning ulug'vorligini, ollohga muhabbatni madh etuvchi she'rlardan iboratdir. She'r shaklida ifodalangan va go'zal musiqa, ashula sadolari bilan jamlangan mana shu g'oyalarning barchasi tinglovchilarning hissiyoti va ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuksak sevgi g'oyalari, pok qalblilik haqidagi madhiyalar ayollarga nisbatan izzat – hurmatni, yoshlarni behayolikdan, sevgiga kaltabinlik, yengiltaklik bilan qarashdan saqlaydi. Didaktik g'oyalalar yoshlarda yuksak ahloqiy qarashlarni: kattalarga hurmat, sahovatlilik, tabiatga muhabbat, insonlarga mehr-oqibat, yovuzlikka murosasizlik, vatanparvarlik, mehnatga, ilm-fanga ijobiy munosabat, yoshlarni musiqiy tafakkurini rivojlantirishda va boshqa hislatlarini tarbiyalaydi. Shu bilan birga, maqomlarning nasr qismini asosini tashkil qiluvchi o'tmish ajdodlarimizning klassik she'rlari

muhim tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan birga, hozirgi davr yoshlarni ommaviy madaniyat ta'siriga tushib qolishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Abdulhamid Cho'lponning badiiy adabiyotning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi fikrlari yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda juda xarakterlidir. Chunki, musiqani adabiyotsiz, adabiyotni musiqasiz tassavur etib bo'lmaydi. "Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'limg'on va adabiyotining taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishtirmog'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilub bo'lmash. Inkor qilg'on millat o'zining inqirozda ekanini bildirur"<sup>29</sup>. Maqomlarning ashula qismini faqat o'tgan davrlarda yozilgan she'rlar bilan chegaralash mumkinmi? Yo'q. Chunki maqomlar uchun qat'iy matnlar belgilangan emas. Har bir maqom (uning musiqa qismi) ma'lum bir davrga, ijrochi qo'shiqchi mansub sinfga, uning dunyoqarashiga mos she'rlarni ashula qilib aytishi ijro etilishi mumkin.

Xalq baxshilari mehnatkash ommaning orzu-umidlari, fikr-o'ylari va qarashlarini ifodalagan she'rlarning matnlarini tanlaganlar hamda ijro etganlar<sup>30</sup>. Shunga ko'ra she'rlarning matnlarini tanlashda davrning ehtiyojlarini va xalqning qiziqishlarini hisobga olish kerak. Lekin bir qoida qat'iy va og'ishmay bajarilishi, ya'ni ashula qismidagi matnning she'riy o'lchami musiqa qismi albatta mos bo'lishi lozim.

Ijtimoiy jarayonlar taraqqiyotiga xizmat qiladigan badiiy madaniyat tizimida san'at estetik namuna bo'lishning assosiy manbaasi hisoblanadi. San'at ijtimoiy munosabatlarning ifodasi – insonni uning rang-barang jismoniy va aqliy qobiliyatlar bilan hamohang tarzda tasvirlash hamda g'oyaviy-estetik tarbiyaning muhim omilaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda maqomlarning musiqalari uchun hozirgi davrda o'sib – ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni estetik va ma'naviy jihatdan kamol toptirish talablariga javob beradigan she'rlarni tanlash va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zaruriyati turibdi. Maqomlarda yosh avlodni estetik va ma'naviy jihatdan kamol toptirish uchun boy imkoniyatlar mavjud. Ana shu imkoniyatlardan samarali foydalanish yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qo'shiqchilik san'ati ommani keng miqyosda estetik qarashlarini rivojlantirishda eng kuchli vositalardan biridir. Ma'lumki, qo'shiqning ijrosi insonning hissiyotiga, matn uning sezgilarini va ongiga ta'sir etadi. Demak, qo'shiqning ta'siri murakkab va kuchlidir. Qo'shiqchilik san'atining har qaysi elementi inson shaxsing turli sohalariga: ongi, irodasi, sezgisi, musiqiy idrokiga o'z holicha ta'sir ko'rsatsa ham, ijro etilayotgan qo'shiq va musiqaning jo'rligi yaxlit birgalikda idrok qilinadi. Ana shu ko'pyoqlama murakkab ta'sir ham yagona jarayon sifatida amalga oshadi. Ashulachilik san'atining mazkur ta'siri qo'shiq jo'rligisiz ijro etiladigan musiqaning ta'siridan kuchliroq bo'ladi. Chunki qo'shiqchilik san'ati uning yo'nalishidagi elementlardan biri bo'lmish musiqaga nisbatan juda katta ta'sir doirasiga ega. Vaholanki, xuddi shuning uchun ham qo'shiqchilik san'ati musiqa san'atining barcha turlariga qaraganda keng xalq ommasi orasida eng sevimli va eng ko'p tarqalganidir. Jamiyat rivojlanishi va uning qonuniyatlarini ilmiy tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj bu sermazmun jarayonlarni dialektik aloqadorlikda tadqiq etishni taqozo qiladi. Ayni paytda, ijtimoiy omillarning san'at taraqqiyotidagi rolini chuqurroq tasavvur etish imkonini beradi. San'atning ijtimoiy rivojlanishining o'ziga xosligi ularni tavsiflaydigan kategoriyalarda ifodalanadi. Bu narsa "badiiy madaniyat" tushunchasida akslanadi. Badiiy madaniyatda san'at o'ziga xos faoliyat, shu bilan birga uning muayyan usuli hamda qadriyati sifatida ham alohida o'rinn tutadi. Shu bois, qo'shiqning, ashulachilik san'atining kuchi va tinglovchilariga ta'sirining xarakteri mazkur elementlarning har biri bilan, natijada ularning birligi bilan belgilanadi va bu birlik yangrayotgan qo'shiqni idrok etayotgan kishiga yaxlit ta'sirini vujudga keltiradi. Bundan esa har bir elementni ko'rib chiqish va qo'shiq insonga ta'sir etishining asosiy jihatlarini aniqlash zarurligini anglash mumkin bo'ladi.

Qo'shiqning kuyi ashulachilik san'atining eng muhim elementi bo'ladi. Qo'shiqning emotsiyonal o'zagi hisoblanadi. Kuyda o'ziga xos bo'lgan ohangdor tovushlar shaklida ashulaning g'oyaviy va emotsiyonal mazmuni aks etadi. Kuydan ana shu moslikni talab qilinadi. Kuy takrorlanmas bo'lishi lozim. Unda uyg'unlik, uslub, ta'sirchanlik, ifodalash vositalarining har hil turlari bo'lishi mumkin. Kuy faqat quvonchli, lirik, ko'tarinki hissiyotlarni uyg'otmaydi. Balki g'amginlik, g'azablanish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Masalan: Rus kompozitori Sergey Prokofevning ikkinchi jahon urushi payti nemis fashist gazandalarini bostirib kelishlariga bag'ishlab yozgan 7-simfoniyasini esga oling. Unda kuylarda barabanlar sadolari, puflab chalinadigan sozlarning yuqori registrda ijro etilishi hamda major

<sup>29</sup> Ўзбек адабиёти. (Мажмуя).-Т.: Ўқитувчи. 1993. Б.120

<sup>30</sup> Алижон Хасанов. Мусиқа ва тарбия. Тошкент. "Ўқитувчи" 1993. 95 б.

## FALSAFA

tonnligida yozilganligi va asar ijrosida har bir insonda urushga bo'lgan nafrat ifodalangan. Bularning bari hayotning turli tomonlarini – quvonch, tashvish, orzu-umid, ayriliq, nafrat va boshqalarni ifoda etadigan qo'shiq va kuylarning mazmuniqa bog'liq. Qo'shiq va kuya qanday cholg'u asboblaridan foydalaniishi, ularning qanchalik to'g'ri tanlanishi qo'shiq va kuyni estetik ta'sirchanligini oshiradi. Estetik tahlilda san'atning hissiy-ta'sirchanligi, obrazliligi va tuzilishi, ichki ijodiy elementlari va qadriyatlarga alohida urg'u beriladi. Madaniyatshunoslik nazariyasida san'atning obyektiv ko'rinishi, shuning bilan, ijtimoiy-ma'naviy, g'oyaviy ifodasidagi belgilari tavsiflanadi.

Badiiy madaniyatni o'rganish shu tartibda asosiy e'tiborni san'atning konkret jamiyat, ijtimoiy institutlar tomonidan belgilangan shakllarini tahlil qilishga qaratadi. Badiiy madaniyatda san'at nafaqat o'ziga xos faoliyat, shu bilan birga uning muayyan usuli hamda qadriyati sifatida alohida o'rinn tutadi<sup>31</sup>. San'at asari madaniyat hodisasi sifatida uni yaratuvchi ijodkorning maqsadi va niyatlarini hissiy tusda gavdalantiradi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni odamlarni estetik tarbiyalashning kuchli vositasi hisoblanadi. Ana shu vosita faqat hissiyotga emas, balki ongga ham ta'sir ko'rsatadi. Hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi, fikrlashga undaydi, turli ma'naviy baholashni hosil qiladi, ya'ni tinglovchilarni axloqiy-estetik qarashlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston musiqa madaniyatida oldin shakllangan janrlar bilan birgalikda yangi an'analar va yangi uslubiy izlanishlar paydo bo'ldi. Har qanday janr o'ziga xos qonuniyatlar bilan rivojlanib, ularda an'anaviylik va zamonaviylik xususiyatlari birdamdir. Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o'zining ajoyib, takrorlanmas badiiy ifodasini topgan. Ulamolarimizning ta'riflaridan birida, musiqa-inson ruhining ozug'idir deyiladi. Milliy musiqa ko'p asrlar davomida ajodolarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolaridagi jonli ifodasi va, yangi, buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozug'idir. Keyingi yillarda milliy maqom san'atimizga bo'lgan e'tibor davlat darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan bir qancha farmon, qaror va qonunlar san'atning bu turi bo'lmish maqom san'atiga bo'lgan e'tibor yoshlarimizni musiqiy tafakkurini shakllantirishda va ularni milliy qadriyatlар ruhida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Qadimiy milliy musiqamizdagи boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarilmoxda. Shu boisdan respublika miqyosida ko'plab tanlovlar tashkil qilinmoqda. Xususan, keyingi yillarda katta ashula ijrochiligi va oilaviy ansambllar, "Alla"ijrochilar, "To'y marosim qo'shiqlari ijrochilar", folklor-etnografik jamoalari "Chashma" tanlovi, "Iste'dod" nomli yosh xonandalar, baxshi-shoirlar, maqom ijrochilar va xalq cholg'u ansambllar, "Barxayot siymolar", M.Uzoqov va J.Sultonov nomidagi yosh xonandalar, Xoji Abdulaziz Rasulov nomidagi yosh xonandalar, Komiljon Otaniyozov nomidagi yosh xonandalar, Yu.Rajabiy nomidagi Xalqaro va Respublika Maqom ijrochilar, oilaviy ansambllar va folklor-etnografik jamoalari, telefestivallar shular jumlasidandir. Turli mahalliy an'analar va xilma-xil ko'rinishlarni o'z ichiga olgan o'zbek musiqa merosi shu kunga qadar ikki asosiy qatlama yetib kelgan bo'lib, biri "xalq musiqasi" yoki "musiqiy folklor", yana biri esa "mumtoz kasbiy" yoki "ustozona" musiqa deb yuritiladi. Ularning har qaysisi "ko'p va xo'b" badiiy barkamol aytim hamda cholg'u namunalaridan iborat<sup>32</sup>.

Hozirgi davrda qadimiy va boy musiqiy merosimiz yangi zamonga xos qaror topgan bastakorlik an'analarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Badiiy asar nafaqat subyektiv ijodiy faoliyat, shu bilan birga san'at ijtimoiy mavjudligi mahsuli hamdir, shuning uchun u birgina yakka voqealar doirasida olib tushuntirilishi yetarli emas. "Badiiy madaniyat" tushunchasi san'atning ijtimoiy tabiat, badiiy jarayonlarni boshqarish, mahsulotlarni saqlash va tarqatish, uning badiiy kadrlar tayyorlaydigan muassasalar yo'naliishiga birikuvini nazarda tutadi."Badiiy madaniyat" tushunchasi san'at amal qiladigan butun sotsial konteksti tushunishda ko'zga tashlanadi<sup>33</sup>. San'atning ko'p yo'naliishli xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, u insonning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanmaydi. Balki, u badiiy madaniyatning asosi sifatida estetik qadriyatlар bilan bir qatorda gnesologik, axloqiy va boshqa qadriyatlarni ham vujudga keltiradi.

Qo'shiqchilikning ashula repertuarlarining boyligi va hilma-hilligi bilan xarakterlanadigan mavzularni oladigan bo'lsak, o'zbek xalqining qo'shiqlarida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat mavzusi keng o'rinn olgan. Ayniqsa 1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushiga bag'ishlangan qo'shiqlar repertuari juda boydir. Ularda vatan himoyachilarining mislsiz qahramonligi, mardlarcha jasorati,

<sup>31</sup> И.Арзиматова. Ф.Ибрагимова. Шахс маданияти ва бадиий-эстетик ўзгаришлар. Фаргона-2020. 60 б.

<sup>32</sup> Ўзбекистон Санъати. "шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Боз таҳририяти Тошкент-2001.1056.

<sup>33</sup> Н.Арзиматова.Ф.Ибрагимова. Шахс маданияти ва бадиий-эстетик ўзгаришлар. Фаргона-2020. 61-б

chidamliligi, kuchi, irodasi, g'ala baga qat'iy ishonchi va Vatanga samimi, chuqur, cheksiz muhabbatidan kelib chiqqan boshqa sifatlari, Vatanni himoya qilishga, uning erkinligini saqlashga intilishi madh etilgan. Yuqorida bayon qilingan badiiy madaniyatning asosi sifatidagi estetik qadriyatlar bilan birga axloqiy, sevgi-muhabbat, dushmanqa nafrat va boshqa qadriyatlar ham mujassam ligini dalilidir. Yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda estetik va badiiy madaniyatning ta'siriga to'xtaladigan bo'lsak, estetik madaniyat nafaqat badiiy, shu bilan birga, mehnat faoliyati, turmush, tashqi olamga hissiy-emotsional munosabatda bo'lishni ham qamrab olishi bilan keng ma'noga ega hisoblanadi. Shuning uchun, "estetik madaniyat" va "badiiy madaniyat" tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Ular o'zaro faoliyat turlari bo'yicha ham farqlanib, jamiyat hayotida turlicha vazifalarni bajaradi. Bularni biz shunda ko'rishimiz mumkinki, badiiy qadriyatlar hamma vaqt ijodiy faoliyatning aniq mahsuli – san'at asarlarining ijod qilinishi, taqsimlanishi va o'zlashtirilishiga asoslanadi, estetik qadriyatlar esa mazmun-mohiyatiga ko'ra umumiy hisoblanib, tabiat narsa-hodisalari va rang-barang mehnat mahsulotlaridan hissiy ta'sirlanishda, inson etiyojlarini qondirilishida o'ziga xos ta'siri bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishning musiqa-ashula san'ati vositalari orqali yetkazishda juda ko'p ishlar qilindi va ma'lum muvaffaqiyatlarga erishildi. Ammo ana shu muhim jarayonlarda qator kamchiliklar va hali hal etilmagan masalalar bor. Bizning fikrimizcha, ular quyidagilardan iborat:

Yosh avlodni musiqa ashula san'ati vositalari orqali estetik dunyoqarashini shakllantirish borasida yaxlit tizim ishlab chiqilgan emas. Bu muammolarni ayrimlari ilmiy-pedagogik va uslubiy nuqtai-nazardan ishlab chiqilgan. Lekin musiqa ashula san'ati vositalari orqali yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tadqiqoti olib borilmagan. Shunga ko'ra ijtimoiy falsafa fani oldida hali ancha muammolar turibdi va bularni hal qilishda ilmiy izlanishlar olib borilishi kerak. "Estetik madaniyat" va "badiiy madaniyat" tushunchalarini qiyosiy tahlil etish, bir tomondan, ularning sohalarini chegaralab olishga, ikkinchi tomondan, jamiyat ma'naviy xayotini rivojlantirishda o'ziga xos o'rnini egallashga imkon beradi. "Agar boshqa sohalarda estetik komponent ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lsa, badiiy madaniyatda u yetakchi o'rinn tutadi. Badiiy madaniyatning mohiyatini estetik faoliyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu narsa faoliyat subyektiga ham, uning faoliylik shakllariga ham, faoliyat natijalariga ham, obyektiga ham birday daxldordir"<sup>34</sup>.

Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuy-ohanglerida o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. L.I.Bojovichning ta'kidlashicha, "Hozir har bir bola tug'ilganidan boshlab fuqaro bo'lib yetishgunicha uni tarbiyalashning maqsadga muvofiq yagona jarayonini tashkil qilish nihoyatda zarur hisoblanadi. Bunda tarbiyani shunday tashkil etish lozimki, unda tasodifiylik va tartibsizlikka yo'l qo'yilmasligi hamda har bir bolaning shaxsi to'liq shakllanishiga erishish kerak"<sup>35</sup>. Musiqa tilining ohang-ritm tuzilishi, badiiy ifodalash vositalari o'ziga xos bo'lib, u o'zbek xalqining musiqiy tafakkuri xususiyatlarini hamda estetik musiqiy normalarini ifodalaydi. Musiqa insonning ijtimoiylashishida juda katta rol o'ynaydi. Musiqa insonning ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va unga o'zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasbkorlikda zarur bo'ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi. Musiqa jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida insonni ma'naviy boyitishning bir vositasi sifatida xizmat qiladi. Hozirgi davrda fan texnika taraqqiy topgan sharoitda musiqani yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati yanada ortdi. Birinchidan texnikaning mo'lligi, hayot maromining tezlashuvi, xalqlarning bir-birlariga o'zaro integratsiyalashuvi, inson o'zlashtirishi lozim bo'lgan internet va axborotlarning ko'payishi uning aqlini takomillashtirsa-da, hissiyotlarini ma'lum darajada qashshoqlantirishi ham mumkinligi bugungi kunning ayniqa. yoshlar hayotida muhim o'rinn tutadi. Shunday hol yuz bermasligi uchun mamlakatimizda shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirishning barcha tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Bu vazifalarni bajarishda musiqa g'oyat muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan chet mamlakatlardan kirib kelayotgan yoshlar o'rtasida keng urf bo'layotgan, ularning axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va shunday ta'sir ko'rsatayotgan "bitlz", "rok", "pop" kabi bizning qadriyatlarimizga yod bo'lgan musiqalarning ommalashuviga qarshi kurashish zarurati bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Buning asosiy omili yoshlarimizda musiqiy tafakkurni rivojlantirishning va san'atga to'g'ri estetik munosabatni, estetik didni tarkib toptirishdan iboratdir.

<sup>34</sup> Абдуллаев, Эстетическая культура. Ташкент: Фан, 1991. С.66

<sup>35</sup> Л.И.Божович. Вопросы формирования личности школьника в свете проблемы воспитания. «Вопросы психологии», 1963, № 6, 12-бет

## FALSAFA

Musiqa insonning ongi va ma'naviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuchdir. Shu bois u inson uchun ma'naviy go'zallikning, qalbi poklikning katta manbai bo'lishi ham, uni qo'rslikka odatlantirishi, umidsizlikka solishi, bag'ritosh va xudbin qilib qo'yishi ham mumkin. Bularning bari inson qanday musiqani tinglashiga va uning mohiyatini qanchalik to'g'ri anglashiga bog'liq bo'ladi. XX asrning rus kompozitori D. Kobalevskiyning ta'kidlashicha: "San'at insonni o'ziga jalb etish yoki faqat ko'ngilini chog' qilish qobliyatiga ega. Qiziqish chuqur fikrlash va chuqur hissiyotlar bilan yuzaga keladi. Ko'ngil ochish esa har qanday yo'l bilan, arzimagan ish bilan amalga oshishi mumkin, buning uchun odam faqat band bo'lsa va uning asablari tinchlansa, bas. Chinakam san'at modalar ta'sirida buzilmaydi, u asrlar davomida yashaydi va insoniyatning ma'naviy dunyosini boyitadi, o'zi eskirmaydi. Ko'ngilochar musiqa esa odatda o'tkinchi modalarning beqaror qonunlariga bo'ysunadi. Eng muvaffaqiyatli estrada qo'shiqlari ham bir yilcha, bir necha oy, hatto, bir necha haftagini yashaydi. Ko'ngilochar asarlar darrov me'daga tegadi, o'z jozibasini yo'qtadi va yanada qiziqarliroq narsaga ehtiyoj tug'diradi, keyin undan ham qiziqarli narsaga intilish paydo bo'ladi va bu hol cheksiz davom etaveradi".<sup>36</sup>

D. Kobalevskiy musiqa tarbiyasi bo'yicha Xalqaro jamiyatning IX konferensiysi qatnashchilariga murojaat qilib quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Yoshlarning vaqtini chog' qiling, lekin ularni bo'g'mang, ma'naviy dunyosini o'g'irlamang, ularni o'tmishdagi va hozirgi buyuk san'at bilan muloqotda bo'lish quvonchidan mahrum qilmang. Yoshlarni buyuk kishilardan o'rganishga odatlantiring. Ularga har qanday asar janri va shaklidan qat'iy nazar, doimo yuksak darajadagi estetik didga mos bo'lishi kerakligini, estetik asos o'zida faqat badiiylikni emas, balki g'oyaviylik va ma'naviylikni ham mujassamlantirishini tushuntiring".

Hozirgi kunda musiqa va umuman san'atning insonni tarbiyalashdagi roli ortib bormoqda. Binobarin fanlarning tabaqlanishi, har bir kishining ixtisoslashuvi uning ma'naviy dunyosini qashshoqlashtirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun san'at, xususan musiqa shaxsning ma'naviy boyligini, dunyonidirok etishining yaxlitligini takrorlanmasligini va uyg'unligini saqlab qolishda yordam beradi. Musiqa faqat o'rganiladigan predmet emas, balki shu bilan birga axloqiy hamda estetik tarbiyaning amaliy vositasidir.<sup>37</sup>

Estetik qarashlarning tarkib topishida san'atning ahamiyati cheksizdir. San'atning turli janrlari bilan muloqotda bo'lish estetik va ma'naviy qarashlarning muhim omilidir. Badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlarni san'atga jalb qilishning, ularni ma'naviy va musiqiy tafakkurlarini shakllantirishning muhim va qulay shaklidir. Bu to'garaklarning funksional vazifalari badiiy ne'matlarni ishlab chiqarishdir. Masalaga kengroq qarasak, "ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish" kategoriyasi falsafiy adabiyotlarda nafaqat ijtimoiy ongini ishlab chiqarish, shu bilan birga uni ma'naviy faoliyatining mahsuli sifatida e'tirof etishni ham anglatadi. Shu ma'noda "ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish" tushunchasi ongga tarixan shakllangan ijtimoiy va individual faoliyat sifatida baho beradi. Demak, ma'naviy ne'matlarni, bu ongning ijtimoiy shaklini ishlab chiqarish demakdir<sup>38</sup>. Tadqiqotimizda xalq musiqasining faqat to'garak ijrochilariga emas, balki talabalarning ma'naviy dunyosiga, estetik didiga va ehtiyojlariga bir xil bo'limsada, ijobjiy ta'sir etishini tasdiqladi. Ana shu ijobjiy ta'sir to'garak qatnashchilarida tinglovchilarga nisbatan kuchliroq ekanini darhol anglash mumkin. Chunki bu hol tabiiy jarayondir. Talaba yoshlar ijodiy jarayonda o'zlarini faol ishtirokchilari hisoblanadi. Shuning uchun davlatimiz tomonidan yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishda sohaga oid qator farmon, O'zbekiston Respublikasi oly Majlis qabul qilgan qonunlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy hujjatlarda badiiy madaniyatning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, shuningdek, g'oyaviy mazmunini milliy istiqlol mafkurasi, umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitishga alohida e'tibor berilgan. Xalqimizga ma'naviy-ma'rifiy, ijodiy va badiiy xizmat ko'rsatish borasida kinoteatr, tasviriy san'at, musiqa san'ati, adabiyotni rivojlantirish, nashriyot xizmatlarini yuksaltirish, televidenie va radio, san'at ta'lim muassasalari, axborot-resurs markazlarini ishlarini takomillashtirishga qaratilgan barcha choratadbirlar shu maqsadlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Yoshlarni musiqiy tafakkurini rivojlantirishda qo'shiqchilik san'ati alohida o'rinn tutadi.

Kuy, musiqa, qo'shiq matni, uning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlari, ijrochilarning mahoratlari birgalikda har qanday vokal musiqiy asarning, shu jumladan, xalq musiqasining ham

<sup>36</sup> Музыкальное образование в современном мире. М., «Советский композитор», 1973, 29-бет.

<sup>37</sup> Алижон Хасанов. Музыка ва тарбия. Тошкент. "Ўқитувчи". 1993. 73-бет

<sup>38</sup> Фалсафа. Қомусий лугат. 2004. Б-254

yo'nalishining kompleksligini ifodalaydi. Ana shu komplekslik asarning kishiga kompleks ta'sir qilishini ta'minlaydi. Ashula san'atining kuchi ham mana shundadir. Qo'shiq, musiqa asari insonga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi: kuy va uning musiqiy ifodalanishi insonning hissiyotiga ta'sir qiladi. Kishida har hil his-tuyg'ularni uyg'otadi, turli-tuman kayfiyatlarini hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrashga majbur etadi. Tinglovchi qo'shiqni yolg'iz hissiyot bilan emas, balki ongi bilan ham idrok etadi, chunki qo'shiqning matni, unda ifodalangan g'oyaviy mazmun qo'shiqda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir. Inson yaxshi qo'shiqni mahoratli ijroda tinglaganida unda kechinmalar vujudga kelishi tasodifiy va bejizga emas. Tinglovchilarning qo'shiqning qanday idrok etishlari, undan qanchalik ta'sirlanishlari, shuningdek, asarning tinglovchilar hissiyotiga va ongiga ta'siri musiqa qanday yangrashiga, qo'shiqchi ashulani qanday ijro etishiga bog'liqdir. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, xalq musiqasi yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy iftixor, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqlik, san'at va hayotni to'g'ri idrok etishni, mehnatsevarlikni tarkib toptiradi. Shuningdek, xalq musiqasi yoshlarda musiqiy tafakkurni shakllantirishda va uning zarurligi haqida to'g'ri did va ehtiyojlarni rivojlantirishda yordam beradi va shu tufayli "bitlz", "rok", "pop" singari yo'ldan uradigan musiqalarning zararli ta'siriga berilishini oldini oladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar
2. F. Ahmedov Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Toshkent."Aloqachi" nashriyoti, 2008 y.106 b.
3. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, 2017 йил, 17 ноябрь.
4. Конрад Н. И. Запад и Восток, М, 1966, 462-бет.
5. Алижон Хасанов. Мусиқа ва тарбия.Тошкент."Ўқитувчи" 1993. 64-бет.
6. Идея эстетического воспитания. Антология в двух тома, Т.1..-М....: искусство, 1973, С.125.(-407)
7. Лосев А.Ф. История античной эстетики. Софисты, Сократ, Платон,-М....: Искусство, 1969, С.31.(-715с.)
8. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-т.-Т.: Ўзбекистон. 1996. –Б.16-17.
9. Умаров Э. Эстетика. –т....: Ўзбекистон. 1995. Б.135
10. Ўзбек адабиёти. (Мажмуа).-Т.: Ўқитувчи. 1993. Б.120
11. Алижон Хасанов. Мусиқа ва тарбия. Тошкент. "Ўқитувчи" 1993. 95 б.
12. И.Арзиматова. Ф. Ибрагимова. Шахс маданияти ва бадиий-эстетик ўзгаришлар. Фарғона-2020. 60 б.
13. Ўзбекистон Санъати. "шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти Тошкент-2001.1056.
14. Н.Арзиматова.Ф.Ибрагимова. Шахс маданияти ва бадиий-эстетик ўзгаришлар. Фарғона-2020. 61-б
15. Абдуллаев, Эстетическая культура. Ташкент: Фан, 1991. С.66
16. Л.И.Божович. Вопросы формирования личности школьника в свете проблемы воспитания. «Вопросы психологии», 1963, № 6, 12-бет
17. Музыкальное образование в современном мире. М., «Советский композитор», 1973, 29-бет.
18. Алижон Хасанов. Мусиқа ва тарбия. Тошкент. "ўқитувчи". 1993. 73-бет
19. Фалсафа. Қомусий лугат. 2004. Б-254
20. Mahmudovich, N. A. (2023). SOME ASPECTS OF THE CONCEPT OF SPIRITUAL RENEWAL IN UZBEKISTAN. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 46-52.